

ROMAN TO‘QIMASIDA MUALLIF NUTQI

Abdullayev Xamro Dauletbaevich
filologiya fanlar nomzodi, dotsent

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
O‘zbekiston, Nukus shahri

Annotatsiya: Maqolada taniqli o‘zbek yozuvchisi Omon Muxtorning “Ming bir qiyofa” romani badiiy tahlilga tortilgan. Asosan, poetik nutq va yozuvchi uslubi, badiiy nutqni yaratuvchi vositalarning estetik funksiyalari, shakliy va mazmuniy o‘ziga xosligi, ularning asardagi badiiy-estetik funksiyasi yoritib berilgan.

Kalit so‘z: Roman, badiiy asar tili, poetik nutq, muallif nutqi, ekspozitsiya, portret, tush tasviri

Hozirgi o‘zbek romanchiligining ustunlaridan biri Omon Muxtor ijodi, uning “Ming bir qiyofa” romanidagi poetik nutq va yozuvchi uslubi, badiiy nutqni yaratuvchi vositalarning estetik funksiyalari, shakliy va mazmuniy o‘ziga xosligi singari masalalar badiiy tahlil va talqinning dolzarbligini hosil qiladi.

“Badiiy asar tili” tushunchasi borasida xilma-xil qarashlar mavjud. Taniqli adabiyotshunos I.Sulton “Badiiy adabiyot asarining tili bir-biridan sezilarli farq qiladigan ikki bo‘lakdan – muallif nutqi va personajlar nutqidan iboratdir”¹ deb tushunchani yanada moddiylashtiradi.

Adabiyotshunoslik til birliklari va sathlarini alohida ob‘yekt sifatida o‘rganmaydi. Balki uni ma‘no va mohiyat anglatuvchi, g‘oyaviy –estetik mazmun beruvchi badiiy nutq hodisasi sifatida talqin etadi. Professor Dilmurod Quronov “... milliy tildan foydalanib asar yaratildi degani nutq hodisasi amalga oshdi va yozuvda muhrlandi deganidir. Ya‘ni bu holda ham “badiiy til” haqida gapirishga asos yo‘q, bas, endi badiiy nutq haqida so‘z borishi kerak bo‘ladi. Albatta, badiiy nutq, tilning leksik va Grammatik vositalardan tarkib topgani ham shubhasiz. Faqat o‘sha leksik va grammatik vositalar konkret nutqiy maqsadga muvofiq realizatsiyaslanib bo‘lgan, ya‘ni endi umuman milliy tilning emas, balki aynan shu nutqning uzviga aylangan. Demak, bu o‘rinda ham umuman milliy til yoki badiiy til haqida emas, balki konkret badiiy asar tili haqida gapirish to‘g‘ri bo‘ladi”².

Biz tadqiqot obyekti qilib tanlagan “Ming bir qiyofa” romanida ham muallif nutqi hikoyachi vazifasini o‘tagan. Romanda muallif nutqi barcha komponentlarni, bo‘lim va qismlarni, asardagi voqealarni o‘zaro bog‘lab bus butun kompozitsiyani yaratgan. Bunda yozuvchi ekspozitsiya, peyzaj, portret, tush, xat, adabiy xarakteristika

¹ Adabiyot nazariyasi. Toshkent, 1986, 203-230-betlar

² Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. “Navoiy universiteti”, Toshkent, 2018, 238-bet.

kabi vositalardan keng va o'rinli foydalangan. Muallif nutqida tasodifiy so'zlar bo'lmaydi. Unda tasodifiylikdan ko'ra qonuniyat ustun bo'ladi.

Romanning birinchi hikoyati to'rtta manzaradan iborat bo'lib, har bir manzarada turlicha ekspozitsiya keltirilgan. "Ekspozitsiya (lot. Exposition - tushuntirish) – syujetning kirish, boshlanma qismi; asar voqeasi bo'lib o'tadigan joy, qahramonlarning konfliktgacha bo'lgan paytdagi qiyofasi, holatini namoyon etadigan vaziyat shart-sharoit tasviri"³ manzaralardagi ekspozitsiyalar zamon va makon nuqtai nazaridan ham bir-biridan tamomila farq qiladi. Birinchi manzaraning qahramoni real shaxs bo'lgani uchun ekspozitsiyada real vaqt va joy tasvirlanadi. Ikkinchi manzara qahramoni ruh (ya'ni Abdulla Hakim) bo'lsada, real voqelik ruh tomonidan kuzatiladi. Bunda ruh voqealar ishtirokchisi emas, balki uning kuzatuvchisidir. Voqealar real makonda ro'y beradi. Uchinchi manzaraga kelib vaziyat yanada o'zgaradi. Voqealar real makonda emas, balki, mavhum zamon va makonda sodir bo'ladi. Ya'ni voqealar Abdulla Hakim jasadi qabrga qo'yilgach, go'r ichida inson ongi va tasavvuridan tashqarida bo'lib o'tadi. To'rtinchi manzara voqealari esa inson zoti tasavvuridan ancha olisda, ya'ni Mahshargohda (do'zaxda) bo'lib o'tadi. Uchinchi va to'rtinchi manzaralarning sarlavhalari "Parvoz", "Go'r azobi", "So'nggi kun" deya nomlanib, shu nomlarning o'ziyoq voqealar ro'y beradigan joy va sharoit haqida tasavvur hosil qiladi. Shuning uchun ham O.Muxtor yaratgan ekspozitsiyalar an'anaviy romanlardagidan ko'ra ancha ixcham va ramziydir. Birinchi manzaradagi to'g'ri, ekspozitsiya shahar va o'rmon chetidagi uch qavatli bino tasviri bo'lsa, ikkinchi manzarada voqealar vaqt va joy nuqtai nazaridan o'zgarib turganligi uchun sochma ekspozitsiya qo'llanilgan. Manzarada o'z tanasidan chiqqan ruh endi vujudining egasi emas. Endi mayitning egasi tirik odamlar. Ruh tanasi odamlar tomonidan qayerga olib borilsa, u bilan birga. Odamlarning va hatto kasbdoshlarining unga munosabatini kuzatib boradi. Voqealar vaqt va joyiga mos ekspozitsiyalar qo'llanilib boradi.

Uchinchi manzarada to'g'ri ekspozitsiya qo'llanilgan. Muallif nutqi orqali ruhning jasad bilan birga qabrga kirishi, qabr ichida munkar-nakir farishtalarning paydo bo'lishi kabi tasvirlar mahorat bilan tasvirlangan. To'rtinchi manzara voqeahodisalar bo'lib o'tadigan joy (ya'ni mahshargoh va do'zax) va hart-sharoit tasviri hikoyaning boshida keltirilgan. Voqealar Mahshargohda va do'zax ichida bo'lib o'tadi. Ko'rinadiki, O.Muxtor qo'llagan ekspozitsiyalar qisqa va lo'nda, ammo, o'ziga xos hisoblanadi.

Romanda bor yo'g'i faqat ikkitagina tush tasviri mavjud. Matnda tush tasviri qahramonlarning psixologiyasini, yaqin kelajakda hayotda sodir bo'ladigan taqdir o'zgarishlariga ishora vazifasini bajaradi. Faqat bugina emas, qahramonlar taqdirini muayyan davr, ijtimoiy munosabatlar o'zgarishi bilan ham bog'liq qilib qo'yishi

³ Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent, 2002, 117-118-betlar.

mumkin. “Tush orqali yozuvchi, asosan, o‘z qahramonlari ichki dunyosini, ruhiy holatini, kechinma va dramalarini, orzu-xayollarini ochishga intiladi. Tush – obrazlarni individuallashtiruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi”.⁴

Romandagi birinchi tush tasviri birinchi hikoyatning birinchi manzarasida keltirilgan. Ushbu tush tasviri orqali biz bosh qahramon Abdulla Hakim va uning sevgilisi Halima haqida tasavvurga ega bo‘lamiz. Unda voqealar tasviri retrospektiv xarakterga ega bo‘lib, qahramonning Halimadan ayrilish sabablarini bilib olamiz. Ya’ni bunda Abdulla Hakimning talabalik yillari, Halima bila nahdu-paymon qilgan onlari, onasi bilan Halimani tanishtirishi kabi voqealar xotirlanadi. Tush tasviri jarayonida muallif tili vositasida Halimaning portreti ham yaratilib o‘tilgan. Mazkur tush tasviri romanda xarakterli vazifa bajarganligi bois prolog vazifasini bajargan deyishimiz mumkin. Bu esa Abdulla Hakim va Halima bilan bog‘liq syujet liniyasini oldingi voqealari mantig‘i bilan bog‘laydi.

“Egni bilan boshini o‘rab, burchakda yotganicha, u ham shu asnoda beixtiyor ingranib:

Halimajon! Halim! Halima! – deb yubordi...

Manzillar chekinib, devorlar surinib, eshiklar qulab, bexosdan Halima xonaga kirib kelganicha, uning ro‘parasida to‘xtadi...

- Shuncha yil qayerda eding, Halimajon? Nega meni yo‘qlamading?! Axir, men sensiz yasholmayman-ku! – Qizga, nihoyat, dardlarini bayon qila boshladi u. – Otam yo‘q, aka-ukalarim yo‘q. Boshimda yolg‘iz soyabonim, onam o‘lib, ketganlariga ham qancha bo‘ldi. Mening endi dunyoda sendan bo‘lak hech kimim qolmadi! Vaqtida o‘zi seni izlab shaharga kelgan edim... sen yonimda bo‘lganingda, boshimga bu kunlar tushmasmidi!...

Halima birdan kipriklari namlanib, tiz cho‘kib, uni bo‘ynidan qattiq quchdi.

- Bunchalik o‘zingizni qon qilmang, iltimos. Hali yoshsiz. Yigit kishi uchun o‘ttiz yosh nima! Siz uchun hali hammasi oldinda. Hammasi yaxshi bo‘lib ketadi.
- Yo‘q, o‘lim shumshayib atrofimda aylanib yuribdi. Bular meni o‘ldirmay qo‘ymaydi! – pichirladi Abdulla...
- Siz o‘shanda meni uchrashishga taklif qilgansiz. Uchrashganimizda qo‘limga xat topshirgansiz...
- Men senga aytolmagan so‘zlarimni xatga solgandim...
- Xatda siz yozgan she‘rlar ham bor edi...
- Shunday, - tasdiqladi Abdulla. – Yoshlikdan she‘rga qiziqaman...

⁴ Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. “O‘zbekiston” nashriyoti. Tosh, 2002-yil. 180-bet

- Ayb menda. Osiylik qildim, - dedi Abdulla. – Hayajonga berildim. Sodda xayol, devona bir ishonch meni aqldan ozdirib qo’ydi! O’sha kungi shoshqoloqligim kasriga keyin umr bo’yi tutab yashadim...
- O’sha kuni oyingiz bor-yo’g’il ikki og’iz so’z aytdilar. Menga tikilib turib, qishloqqa buni olib bormaysan, mazmunida: “Bu qizim juda nozik ekan-ku” dedilar. Keyin, sizga qarab: “Bo’yingizni qismang, o’g’lim. Yigit kishi boshini ko’tarib yuradi!” dedilar...
- Shu bilan men tiklagan imorat quladi. Hammasi tugadi! – chuqur xo’rsindi Abdulla.
- Men seni ayblamayman. Ayb menda. Men osiylik qildim, - deb yana pichirladi Abdulla...Ming shukur, axiyri bu menga nasib etdi. Men endi o’limdan qo’rqmayman!...

Halima bexosdan kirib kelgani singari bexosdan xonani tark etdi”.(o’sha kitob 28-bet)

Ushbu tush tasviri orqali yozuvchi kitobxonni ayni vaziyat bilan tanishtirib, o’tmish voqealarini hozirgi va kelajak zamon bilan bog’laydi. Bu tasvir orqali Abdulla Hakim va Halima o’rtasidagi sevgi tarixining sirlari ochiladi. Abdulla Hakim tushida bir paytlar Halimaga aytishga ulgur magna qalb nidolarini to’kib soladi. Tush Abdulla Hakim bilan Halimaning diologi shaklida kechadi. Diolog oxirida “Ming shukr, axiyri bu menga nasib etdi. Men endi o’limdan qo’rqmayman!” deydi Abdulla Hakim. Tush tasvirining oxirgi jumlasini ham, shu. Bundan anglashiladiki, sevgilisini yo’qotgan Abdulla Hakim hayotda ham yo’lini yo’qotgan. Uning taqdiri poyoniga yetayotganligini anglash mumkin, bo’ladi.

Birinchi manzaradagi Abdulla Hakim singari Sadirjon ham taqdiridosh. Voqealar rivoji davomida Gulxumor taqdirida ko’z ko’rib, quloq eshitmagan voqealar bo’lib o’tadi. Tush tasvirining xarakteriga muvofiq voqealar sodir bo’ladi. Sadirjonning Gulxumordan xavotirlanishi behudaga emas edi. Sadirjon sevgilisini yo’qotsa-da o’z hayot yo’lini yo’qotmadi, Abdulla Hakimdan farqli o’laroq u ancah kurashuvchan, fidoiy shaxs. “...romanda qahramonning ongli va ongsiz hayoti(tushi va xushi) mantiqan bir-biriga bog’liq holda to’liq tasvirlanadi. Shu asosda uyqu va anglangan hayotning aloqasi tiklanadi, qahramon fikr va hissiyotining oqimi beriladi. Tush umumiy psixologik kartinaga singib ketadi va ayni paytda, qahramon ruhiy iztiroblari, kechinmalarining barcha ko’rinishlarini, “rang”larini reallashtiradi”.⁵

Yozuvchi tomonidan muallif nutqiga yuklangan badiiy-g’oyaviy vazifa nihoyatda g’ayri oddiy usullarda amalga oshirilgan. Romandagi muallif va personaj nutqlari haqida gap borar ekan, ularda davr qiyofasi va psixologiyasi, shu jamiyatning turfa alomatlari aks etgan.

⁵ Umurov H. Adabiyot nazariyasi. “Sharq” nashriyoti, Toshkent, 2002 yil, 160-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, 1986.
2. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent, 2002.
3. Omon Muxtor. “To’rt tomon qibla” trilogiya. Toshkent. ”Sharq”. 2000-yil.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. “Navoiy universiteti”, Toshkent, 2018.
5. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. “Sharq” nashriyoti, Toshkent, 2002 yil.